

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

ANVAROV AKBARJON BAXROM O‘G‘LI

**YUQORI KREMNEZYOMLI XOMASHYONI BOYITISH VA ULAR
ASOSIDA XOSSALARI YAXSHILANGAN SHAFFOF SHISHA IDISH
OLISH TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi
02.00.15 - Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Anvarov Akbarjon Baxrom o'g'li

Yuqori kremnezyomli xomashyoni boyitish va ular asosida xossalari yaxshilangan shaffof shisha idish olish texnologiyalarini ishlab chiqish.....3

Анваров Акбаржон Бахром угли

Разработка технологий обогащения высоко-кремнеземистого сырья и получение на его основе прозрачного тарного стекла с улучшенными свойствами.....21

Anvarov Akbarjon Baxrom ugli

Development of technology for producing transparent glass with improved properties based on the obtained concentrate by enriching high-silica raw materials.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

ANVAROV AKBARJON BAXROM O'G'LI

**YUQORI KREMNEZYOMLI XOMASHYONI BOYITISH VA ULAR
ASOSIDA XOSSALARI YAXSHILANGAN SHAFFOF SHISHA IDISH
OLISH TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi
02.00.15 - Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Тошкент-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5032 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (ionx.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirova Zulayxo Raimovna
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Namazov Shafiq Sattarovich
texnika fanlari doktori, professor, akademik

Yunusov Mirjalil Yusupovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya ishi himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning "10" iyul 2025 yil soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel: + (998)71 2625660, faks:+(998)71 2627990, e-mail: ionx@academy.uz)

Dissertatsiya ishi bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№75-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel: + (998)71 2625660, faks:+(998)71 2627990)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" iyun kuni tarqatildi.
(2025-yil "26" iyundagi №75-raqamli reestr bayonnomasi).



N.X. Usanbaev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

J.S. Shukurov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., prof.

Sh.S. Namazov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy
seminar raisi, t.f.d., prof., akademik

Kirish (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda xo‘jalik-maishiy, qurilish va texnik maqsadlarga mo‘ljallangan shisha materiallarga bo‘lgan talabning jadal ravishda ortishi natijasida yuqori kremnezyomli xomashyolar asosida ularning samarali tarkiblarini tuzish hamda ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Sababi, shisha buyumlar ishlab chiqarish sohasining muvaffaqiyati, asosan, foydalanilayotgan istiqbolli yuqori kremnezyomli xomashyo resurslarining sifati bilan bevosita bog‘liq. Shu munosabat bilan an‘anaviy yuqori sifatli kremnezyomli xomashyo zahiralarning tobora kamayib borishi shisha sanoatining barqaror rivojlanishi va yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta‘minlash uchun yangi ilmiy izlanishlar hamda innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Ta‘kidlash joizki, kremnezyomli mineral xomashyo jinslarining fizik-kimyoviy xususiyatlarini chuqur o‘rganish, mahalliy sifati past xomashyo resurslarini qayta ishlash va boyitishning ilg‘or texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Bundan tashqari, tayyor mahsulot tannarxini optimallashtirish maqsadida asosiy kremnezyom xomashyosiga muqobil materiallarni izlash yoki ularning funksional o‘rnini bosuvchi komponentlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda bugungi kunda energiya va resurs tejamkor texnologiyalar asosida yuqori sifatli shisha buyumlar va materiallarning tarkibini tuzish hamda ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu jarayonda, shisha sanoati uchun xomashyo bazasini kengaytirish maqsadida noan‘anaviy xomashyo konlarini o‘zlashtirish, xomashyoni boyitishning optimal usullarini ishlab chiqish, shisha omuxtasining yuqori haroratli qaynash jarayonlarini chuqur o‘rganish hamda suyuqlanma hosil bo‘lishiga harorat ta‘sirini ilmiy asoslash masalalariga, shuningdek, shisha materiallarning fizik-texnik xossalarining ularni olishning texnologik rejimiga bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha izlanishlarga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda past haroratda eriydigan shisha suyuqlanmasidan foydalanish asosida turli maqsadlarga mo‘ljallangan shisha materiallar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, olingan shisha buyumlarning fizik-texnik va maxsus xossalarini, jumladan, shisha tara, banka, rangsiz, rangli, qoraytirilgan va boshqa turdagi shisha materiallarning rang gammasini aniqlash yo‘nalishi bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Shuningdek, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida noan‘anaviy noruda xomashyo resurslarini jalb etish hisobiga xomashyo bazasini kengaytirish va «Yashil iqtisodiyot»¹ doirasida chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish ta‘kidlangan. Bu borada sifatsiz kremnezyom xomashyosini boyitish va past haroratli texnologiya asosida shisha buyumlarini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli “ 2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60 sonli “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot Strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni, 10.10.2022 yildagi PQ-388 sonli “Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”, 07.07.2022 yildagi PQ-307 sonli “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 22.04.2021 yildagi PQ-5083 sonli “Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xom ashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 29.10.2020 yildagi PF-6097 sonli “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlanishining VII “Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya fanlari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Nashr etilgan adabiyot manbalarida yuqori kremnezyomli xomashyolarni boyitish, turli strukturali shisha materiallarining sintezi va ularning fizik-texnik xususiyatlarini yaxshilash masalalari keng yoritilgan. Kvars xomashyosini boyitish va ular asosida shisha buyumlar ishlab chiqarishning nazariy asoslarini ochib beruvchi manbalar sifatida I.I. Kitaygorodskiy, D. Shelbi, E. Burxis, A. Guangtong, G. Rabot, S.F. Xolder, Y.Shimotsuma, D.V. Gerber, A.V. Kornilov, N.K. Gaynutdinov, L.M. Sulimenko, Y.M. Guloyan, S.G. Vlasova, O.G. Galustyan, O.V. Kazmina, V.S. Rimkevich, L.F. Papko, N.I. Minko, I.M. Tereshenko, R.G. Melkonyan, G.A. Seylxanova, N.Y. Mixaylenko, A.P. Kravchuk, A.D. Afanasyev, T.B. Shalaeva va boshqa ko‘plab olimlar asarlari asosiy manbalar xisoblanadi.

Respublikamizda A.A. Abdurazzokov, N.A. Sirojiddinov, S.S. Kasimova, A.A. Ismatov, D.U. Tulyaganov, A.P. Irkaxodjaeva, M.Y. Yunusov, Z.R.Kadirova, Z.K. Babaev, Sh.Y. Azimov, M.X. Aripova, G.A. Kasimova, B.Sh. Tuymetov, M.T. Muxamedjanova, X.A. Adinaev va boshqa yetakchi olimlar shisha sanoati uchun yuqori kremnezyomli xomashyo materiallarini boyitish texnologiyalarini ishlab chiqish, shisha tushunchasi, ishlab chiqarishda shisha materiallarining o‘rni, shisha materiallar turlari, shishaning fizik-kimyoviy xususiyatlari, maxalliy xomashyolar asosida shisha idishlar sintezi kabi tushunchalar atroflicha ko‘rib chiqilgan.

Ammo, bir qator erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan, mahalliy xomashyo resurslari asosida ilmiy-amaliy, iqtisodiy va ekologik omillarni hisobga olgan holda past haroratlarda eruvchi shisha idishlar olishda amaldagi talablarga javob beradigan shisha materiallarni erish jarayoni bo‘yicha asoslangan ilmiy ma‘lumotlar yetarli emas.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan muassasa ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Umumiy va noorganik kimyo institutining “Qurilish va texnik maqsadlarda silikat va funktsional materiallar olishda energiya va resurs tejovchi tarkiblar va texnologiyalarni ishlab chiqish” (2020-2024 yy.) byudjet mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori kremnezyomli xomashyoni boyitish va uning asosida xossalari yaxshilangan shaffof shisha idish olish texnologiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari:

Oynaqum kvarts qumi va Tulakul tomirsimon kvarts konlari, hamda «Ingichka» uchastkasi dala shpatining kimyoviy-mineralogik tarkiblari va fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash;

yuqori kremnezyomli xomashyoning yuqori haroratdagi fazaviy o‘tish jarayonlarini hamda xomashyo komponentlarining komponentlarining fizik-kimyoviy xossalari o‘rganish;

kvarts qumi va tomirsimon kvarts larni boyitish texnologiyasini ishlab chiqish, hamda olinayotgan shishaning fizik-texnik va texnologik xossalari dala shpatining ta’sirini o‘rganish;

shisha massasini qaynash jarayonida kechadigan fizik-kimyoviy o‘zgarishlarni aniqlash bo‘yicha kompleks tadqiqotlar o‘tkazish, tajriba namunalarining fizik-texnik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish hamda olingan shishaning qaynash harorati o‘zgarishi bilan uning «tarkib-struktura-xossa» funktsional bog‘liqligini aniqlash.

yorug‘lik o‘tkazuvchanligi-shaffofligi yaxshilangan shisha olish maqsadida shisha qaynash jarayonida hosil bo‘ladigan suyuqlanmasining maqbul tarkiblari va texnologik rejim parametrlarini aniqlash;

ishlab chiqilgan tarkiblar asosida olingan shisha tajriba namunalarini ishlab chiqarish sharoitida tajriba sinovi yo‘li bilan aprobatsiyadan o‘tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Oynaqum kvarts qumi va Tulakul tomirsimon kvarts konlari, “Ingichka” uchastkasi dala shpati, shuningdek, olingan kvarts kontsentrati va sintez qilingan tajriba shisha namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida kvarts kontsentrati olish va fizik-kimyoviy jarayonlarni o‘rganish, xususan, fazaviy o‘zgarishlar, kremnezyomning polimorfizmi, tajribaviy shisha namunalarining fizik-kimyoviy va texnologik xossalari hamda shisha pishirishda texnologik rejim parametrlarini aniqlash va o‘rnatishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari (kimyoviy, rentgenofluoresent, rentgenofazaviy, differensial-termik, IQ-spektroskopik, optik) va shisha texnologiyalarining ana’anaviy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fizik-texnik xossalari yaxshilangan shisha olish uchun Oynaqum kvarts qumi, Tulakul tomirsimon kvarts konlarining va «Ingichka» uchastkasi dala shpatlarining yaroqliligi asoslangan;

yuqori kremnezyomli xomashyoni boyitishda yuvish, ishqalab yuvish va termik ishlov berish bilan keyingi magnit separatsiyasidan o'tkazish jarayonlarini qo'llash xisobiga Fe_2O_3 va TiO_2 ko'rinishidagi salbiy qo'shimchalardan tozalashning nisbatan yuqori samaradorligiga erishilganligi, buning natijasida Fe_2O_3 miqdori 0,025 mas.% gacha kamayganligi va kvarts qumi sifatining «OBC-025-1» markagacha yaxshilanganligi aniqlangan;

shisha omuxtasini boshlang'ich komponentlariga 1400-1450°C harorat oralig'ida termik ishlov berish rejimiga bog'liq ravishda shisha hosil bo'lishdagi fizik-kimyoviy jarayon qonuniyatlari ilmiy isbotlangan;

boshlang'ich komponentlarning miqdori, turlari, shisha omuxtasiga 0,5-1,0 mas.% oralig'ida qo'shilayotgan premikslarning shisha material namunalarning fizik-texnik va texnologik xossalriga ta'sir etish qonuniyatlari aniqlangan;

to'liq shisha hosil bo'lish jarayoni 1400-1420°C harorat oralig'ida yakunlanishi, bu esa amaldagi shisha ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan 20-30°C past haroratda kechishi aniqlangan;

yorug'lik o'tkazuvchanligi-shaffofligi 81,1-88,5% ga ega bo'lgan xo'jalik-maishiy maqsadlardagi shisha materiallar olish uchun ishlab chiqilgan tarkibdagi shisha massasidan foydalanish imkoniyatlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oynaqum kvarts qumi, Tulakul tomirsimon kvarts konlari va «Ingichka» uchastkasi dala shpatlari hamda zaruriy qo'shimchalardan foydalangan holda ishlab chiqilgan tarkiblar asosida, yorug'lik o'tkazuvchanligi 81,1-88,5% bo'lgan, xo'jalik-maishiy maqsadlarga mo'ljallangan yuqori sifatli shisha materiallarini olish imkoniyati ilmiy jihatdan asoslangan;

mahalliy xomashyo komponentlari asosida, past haroratda qaynaydigan shisha omuxtasining xomashyo tarkiblari maqbullashtirilgan va rangsiz shisha idish olish texnologik rejimining parametrlari ishlab chiqilgan;

shisha massasining yangi retsepturasi asosida ishlab chiqilgan shisha namunalari - shisha idishlarni ishlab chiqarish sharoitida tajriba sinovini o'tkazish orqali olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kimyo-analitik va zamonaviy fizik-kimyoviy (rentgenfazali, differensial-termik, mikroskopik, elektron-mikroskopik, IQ-spektroskopik) tahlil usullari hamda shaffof shisha idish namunalari silikatlar texnologiyasining amaldagi talablariga asosan ishlab chiqarish sharoitida tajriba-sanoat sinovidan o'tkazilganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yangi tarkib asosida shisha materiallari olish jarayonida xomashyo komponentlariga termik ishlov berish, suyuqlanma hosil bo'lishi, boshlang'ich komponentlar minerallarining fazaviy o'tishlari hamda kremnezyom polimorfizmi chuqur o'rganilgan va olingan kvarts konsentratidan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan tarkibga bog'liq ravishda namunalarning fizik-kimyoviy, texnologik ko'rsatkichlarining o'zgarishi orasidagi funktsional bog'liqliklari ilmiy asoslab berilganligi va bu o'z navbatida oliy ta'lim tizimida mazkur sohadagi bakalavr va magistraturada o'qitish jarayonida qollanma sifatida foydalanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy xomashyo komponentlari asosida ilk bor texnologik xossalari yaxshilangan shisha idishlarning yangi energiyatejamkor tarkiblari va past haroratda olinadigan texnologiyasi ishlab chiqilgan hamda maqbullashtirilgan. Shaffof shisha idish olish texnologiyasi maxalliy xomashyo ba'zasini kengaytirish bilan birga, amaldagi standart talablarga mos keladigan yuqori sifatli silikat mahsulotlari ishlab chiqarish imkonini yaratadi, hamda o'z navbatida mazkur ishlab chiqarish texnologik jarayonining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oynaqum kvarts qumi, Tulakul tomirsimon kvarts konlari va Ingichka uchastkasi dala shpatidan foydalanib xomashyoni boyitish va ular asosida xossalari yaxshilangan shaffof shisha idish olish texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Oynaqum kvarts qumi, Tulakul tomirsimon kvarts konlaridan yuqori sifatli kvarts konsentratini olish uchun ishlab chiqilgan boyitish texnologiyasi "ASL OYNA" MChJning "2024-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan ("O'zsanoatqurilishmateriallari" Uyushmasining 2024 yil 4 dekabrda 04/15-3738-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, amaldagi davlat standartlariga mos keluvchi kvarts konsentratini olish imkonini beradi;

boyitilgan kvarts konsentratini, Ingichka uchastkasi dala shpati hamda boshqa an'anaviy qo'shimchalar asosida shaffof shisha idish olish texnologiyasi "ASL OYNA" MChJning "2024-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan ("O'zsanoatqurilishmateriallari" Uyushmasining 2024 yil 4 dekabrda 04/15-3738-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, davlat andozalariga to'liq javob beruvchi shaffof shisha idish ishlab chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta halqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Ulardan 7 tasi ilmiy maqola bo'lib, Scopus bazasiga kiruvchi jurnalda 1 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta xorijiy va 4 ta respublika jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil qilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Shisha materiallari ishlab chiqarishning xozirgi xolati tahlili va rivojlanish istiqbollari. Shisha tarkibi, xossalari va olish usullarini ishlab chiqish. Yuqori kremnezyomli xomashyoni boyitish va shisha xosil bo‘lish jarayonlari”** deb nomlangan birinchi bobida ilmiy-texnik adabiyotlarda va elektron manbalardagi mavjud ishlarning tahlil natijalari, oxirgi nashr etilgan ishlar, shuningdek shisha ishlab chiqarishda mineral xomashyo va ikkilamchi resurslardan foydalanishning xozirgi vaqtdagi holati va prognoz ma’lumotlar keltirilgan.

Mavjud yutuqlar bilan bir qatorda, ushbu yo‘nalishdagi noan’anaviy tog‘ jinslari va tarkibida kvarts mavjud bulgan chiqindilarni ajratib olishning energiya va resurslarni tejash texnologiyalari maqsadli tadqiqotlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Turli maqsadlar uchun mo‘ljallangan shisha materiallarini olish texnologiyasi va turli sanoat chiqindilaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan shisha eritmaları tarkiblari bo‘yicha ma’lumotlar muhokama qilindi. Nashr etilgan ishlarga tanqidiy tahlil va muhokama asosida ushbu tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilandi.

Dissertatsiyaning **“Shisha materiallar namunalarining fizik-kimyoviy va klassik tadqiqot usullari. Yuqori kremnezyomli xomashyoni boyitish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida mahalliy kvarts qumlari va Respublikamizdagi mavjud boshqa mineral-resurslarni tadqiq qilish asosida shisha materiallarning birlamchi komponent tarkiblari va tajriba namunalari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Ularning kimyoviy, granulometrik, mineralogik tarkiblari, fizik-kimyoviy xossalari, shisha xosil bo‘lish jarayonlari zamonaviy fizik-kimyó tahlili va shisha ishlab chiqarishning klassik usullari yordamida tahlil qilingan. Shunday qilib, xomashyo materiallari va shisha namunalarining fizik-kimyoviy va texnologik xossalari tahlil natijalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Boshlang‘ich yuqori kremnezyomli xomashyo materiallarining xususiyatlari va ularni turli texnologik usullar bilan boyitish”** deb nomlangan uchinchi qismida O‘zbekistondagi mavjud yuqori kremnezyomli xomashyo resurslarining turli konlari va shisha materiallarining samarali shixta tarkiblarini ishlab chiqish, shuningdek, texnik glinazyomning o‘rnini bosadigan dala shpati konlarining kimyoviy-mineralogik va granulometrik tarkiblari, fizik-kimyoviy xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, kvarts konsentratini olish maqsadida turli texnologik usullar yordamida yuqori kremnezyomli xomashyoni boyitish natijalari keltirilgan.

Kimyoviy tarkibiga ko‘ra O‘zbekistondagi ko‘plab kvarts xomashyo resurslari konlari amaldagi GOST 22551-2019 talablariga to‘liq javob bermaydi. Shu bilan birga, kvarts qumi shisha shixtasining asosiy komponenti hisoblanganligi sababli unga bo‘lgan talab yuqori. Ayniqsa, yuqori sifatli va yuqori yorug‘lik o‘tkazish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan shaffof shisha mahsulotlari ishlab chiqarish uchun kvarts qumini qo‘shimcha boyitish zarurati mavjud.

Shisha tarkiblarini tuzish uchun O‘zbekistonning yangi istiqbolli mineral-xomashyo resurslari sifatida tadqiq etilayotgan Tulakul tomirsimon kvarts, Oynakum kvarts qumi, “Ingichka” uchastkasi dala shpati va Dehqonobod

dolomitining kimyoviy tarkiblari natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tadqiq etilayotgan kremnezyomli xomashyo resurslari tarkibida kremniy oksidining miqdori 96,3-98,3 mas.% ni tashkil etib, boyitish jarayonidan so‘ng, kremniy oksidining miqdori 98,8-98,9 mas.% ga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari asosiy rang beruvchi oksid(Fe_2O_3 , TiO_2)larning miqdori ham sezilarli darajada kamayganini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval


O‘zbekistonning turli konlari yuqori kremnezyomli xomashyo resurslarining dastlabki va boyitilgandan keyingi kimyoviy tarkibi

Xomashyo nomi	Oksidlar nomi, mas. %								k.k.y., mas.%
	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	TiO_2	CaO	MgO	Na_2O	K_2O	
Tulakul tomirsimon kvarsi	98,3	0,73	0,06	0,01	0,06	-	0,14	0,12	0,58
Tulakul boyitilgan tomirsimon kvarsi	98,9	0,40	0,03	0,001	0,02	-	0,06	0,08	0,51
Oynaqum kvars qumi	96,3	2,55	0,11	0,001	0,30	-	0,12	0,85	0,95
Oynaqum boyit. kvars qumi	98,8	0,45	0,025	0,001	0,05	-	0,08	0,43	0,86
Ingichka uchastkasi dala shpati	69,5	17,3	0,03	-	0,40	iz.	6,30	5,65	0,82
Dehqonobod dolomiti	2,7	0,35	0,07	0,001	33,1	18,7	0,05	0,01	45,0

Izoh: Kuydirishdagi keyingi yo‘qotishlarga (k,k,y.) adsorbsion, gidrat, kristallizatsion suvlar, organik va uchuvchan moddalar, hamda uglerod (IV) oksidi kiradi.


Shuni ta’kidlash lozimki, shisha materiallar ishlab chiqarishda texnik glinazyomdan keng foydalaniladi. Tadqiqot ishida foydalanilgan “Ingichka” uchastkasi dala shpati o‘zining kimyoviy tarkibi va xossalari bilan texnik glinazyom o‘rnini bosishi mumkin, hamda silikat va shisha xosil bo‘lishi, shuningdek tiniqlashtirish jarayonlariga ta’sir o‘tkazib shisha erish xaroratini pasaytiradi. “Ingichka” uchastkasi dala shpati kimyoviy tarkibi jihatidan amaldagi GOST 13451-77 talablariga javob beradi. Dala shpatining mineralogik tarkibi ham an’anaviy dala shpatiga hos bo‘lgan minerallardan tashkil topgan. Dolomitning kimyoviy tarkibi ham asosan kalsiy va magniy oksidlariddan tashkil topgan bo‘lib, amaldagi GOST 23672-2020 shisha sanoati uchun dolomitning texnik talablariga javob beradi.

Xomashyo materiallarining mineralogik tarkibi rentgenofazaviy tahlil yordamida o‘rganilgan. Tulakul tomirsimon kvarsi namunasining rentgenofazaviy tahlil natijalariga ko‘ra (1-rasm) β -kvarsga xos bo‘lgan tekisliklararo masofalardagi difraktsiya maksimumlarini ko‘rishimiz mumkin ($d = 0,427; 0,335; 0,246; 0,228; 0,224; 0,213; 0,198; 0,182; 0,167; 0,137$ nm), bu yerda past intensivlikdagi difraktsiya maksimumlari ($d = 0,138; 0,154$) dala shpati minerallariga tegishliligi aniqlangan.




1-rasm. Tulakul tomirsimon kvarts namunasining rentgenofazaviy tahlili

Tulakul tomirsimon kvartsining differentsial-termik tahlili (2-rasm) harorat egri chizig'ida to'rtta endotermik effekt yuzaga kelganini ko'rsatdi. 190°C haroratdagi endoeffekt adsorbtsion va gidrat suvlarning ajralib chiqishi sababli yuzaga kelgan. 573 °C va 875 °C haroratlardagi endoeffekt esa kvartsning yuqori haroratdagi modifikatsiyalariga mos ravishda α -kvarts va α -tridimitga polimorf almashinishlari bilan bog'liqdir. 939 °C haroratdagi endoeffekt esa kremnezyom mineralining dastlabki parchalanishiga mos keladi.




2-rasm. Tulakul tomirsimon kvarts namunasining DTA tahlil natijalari

Tulakul tomirsimon kvarsi namunasining IQ spektroskopik tahlilida (3-rasm) 694, 777 va 1060 sm^{-1} chastotalarda intensiv yutilish chiziqlari kremniy-kislorod tetraedrlarining $[\text{SiO}]^{4+}$ assimetrik va simmetrik valent tebranishlariga mos kelishini kuzatishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, 777,794 sm^{-1} chastotalardagi yutilish chiziqlari kislorod-kremniy-kislorod (O-Si-O) guruhiga tegishlidir, -Si-O- ga mos keladigan yutilish chiziqlari 1060 sm^{-1} da paydo bo'ladi.



3-rasm. Tulakul tomirsimon kvars namunasining IQ-spektr tahlili

Ma'lumki, texnologik sharoitlarda shisha ishlab chiqarish jarayonida kvars qumlari turli harorat rejimlarida termik ishlov beriladi. Oynaqum konidan olingan kvars qumining fazaviy o'tish jarayonlarini o'rganish hamda uni keyinchalik boyitish maqsadida 900°C haroratda termik ishlov berildi (4-rasm).




4-rasm. Oynaqum koni kvars qumining kuydirilgandagi (900 °C) va dastlabki rentgenogrammalari

Xomashyo materiallarining mineralogik tarkibi rentgenofazaviy tahlil yordamida o'rganilgan. Oynaqum kvars qumi namunasining rentgenogrammasida

(4-rasm) β -kvarsiga xos bo'lgan difraktsiya maksimumlarini ko'rishimiz mumkin ($d = 0,419; 0,330; 0,243; 0,222; 0,211; 0,197; 0,180; 0,166; 0,153; 0,136$ nm), bunda past intensivlikdagi difraktsiya maksimumlari tuproqsimon-dala shpati va qisman karbonatli minerallarga mos keladi ($d = 0,138, 0,153$).

Kvars qumi namunasining 900°C haroratda kuydirilganda β -kvars diffraktsiya maksimumlarini pasayishini kuzatishimiz mumkin, bunda α -tridimit hossalriga mos bo'lgan diffraktsiya maksimumlarini paydo bo'lganini ko'rishimiz mumkin ($d = 0,421; 0,332; 0,244; 0,227; 0,222; 0,197; 0,181; 0,153; 0,144; 0,137$ nm).

Kvars qumlarining granulometrik tarkibi shisha hosil bo'lish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kvars qumi namunasining granulometrik tarkibi tahlil qilinganda (5-rasm), uning mayda dispersligi va shisha ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyati aniqlangan. Bundan tashqari, uning 85% dan ortiq qismini $0,1\text{--}0,5$ mm o'lchamdagi zarralar tashkil etib, bu esa shisha pishirish jarayoni uchun optimal tarkib hisoblanadi.



5-rasm. Oynaqum koni kvars qumining granulometrik tarkibi

Olingan tajriba natijalariga (1-jadval) asoslanib, Oynaqum kvars qumini, alyuminiy oksidi (Al_2O_3) miqdorining biroz yuqoriligini hisobga olmaganda, "C-070-2" markali kvars qumiga kiritish va uni yarim oq shisha ishlab chiqarishda foydalanish mumkinligi aniqlandi. Biroq, kimyoviy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kvars qumi tarkibidagi rang beruvchi oksidlar (Fe_2O_3 va TiO_2) mavjudligi ushbu qumni yuqori sifatli shisha materiallari ishlab chiqarishga yaroqsiz ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu kvars qumlarini qo'shimcha boyitish tavsiya etiladi.

Ushbu ishda quyidagi boyitish usullari qo'llanilgan: birlamchi magnit separatsiyasi, kvars qumini suvda yuvish, ishqalab yuvish (otirka), yuqori haroratda termik ishlov berish va keyinchalik magnit separatsiyasi jarayonlari

xisoblanadi. Oynaqum koni kvarts qumini boyitish quyidagi texnologik sxema orqali amalga oshirildi:

Birlamchi magnit separatsiyasi qumdagi magnit sezuvchanlik qiymati yuqoriroq bo'lgan aralashmalarni ajratib olish imkonini beradi. Oynaqum kvarts qumining magnit separatsiyasidan keyingi kimyoviy tarkibi (mas. %) SiO_2 – 97,5; Al_2O_3 – 1,70; Fe_2O_3 – 0,07; TiO_2 – 0,02; CaO – 0,14; MgO – 0,06; Na_2O – 0,15; K_2O – 0,35. Magnit separatsiyasidan so'ng olingan kimyoviy taxlil natijalariga ko'ra Oynaqum kvarts qumlarini "C-070-1" markali qumlar sinfiga kiritish mumkin.

Suvda yuvish jarayoni. Kvarts qumi namunalari suvda yuvilganidan so'ng quyidagi kimyoviy tarkibga ega bo'lgan kvarts konsentrati olindi (mas. %): SiO_2 -97,6; Al_2O_3 -1,60; Fe_2O_3 - 0,06; TiO_2 -0,02; CaO -0,09; MgO -0,08; Na_2O -0,15; K_2O -0,40.


Kvarts qumi suvda yuvilgandan keyin Al_2O_3 miqdori 1,70 dan 1.60 mas. % gacha pasayganini, temir oksidi miqdori esa Fe_2O_3 0,07 dan 0,06 gacha mas.% tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Bunda SiO_2 miqdorining 97,5 dan 97,6 gacha oshganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu kvarts konsentrati "C-070-1" markaga to'g'ri kelib, float shishalar, turli xildagi texnik shishalar ishlab chiqarishda qo'llash mumkin.

Ishqalab yuvish (ottirka). Kvarts donalari yuzasini tuproq hamda turli rang beruvchi metall oksidlarini (Fe_2O_3 va TiO_2) o'z ichiga olgan qobiqlar va plyonkalarni yoqotish maqsadida magnit separatsiyasi va yuvish jarayonidan o'tgan namunani ishqalab yuvish jarayonidan o'tkazdik. Bu jarayon 40 daqiqani tashkil qildi, natijada quyidagi kimyoviy tarkibda kvarts konsentrati olindi (mas. %): SiO_2 -97,8; Al_2O_3 -1,50; Fe_2O_3 -0,05; TiO_2 -0,01; CaO -0,06; MgO -0,02; Na_2O -0,15; K_2O -0,40.

Bu usul boyitish jarayonida o'zining samaradorligi ko'rsatdi va olingan kvarts qumi konsentrati nafaqat «flint» va parfyumeriya shishalari olish uchun, balki nur o'tkazish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan meditsina, laboratoriya va boshqa maishiy-xo'jalik shishalari ishlab chiqarishda qo'llash mumkin.

Termik ishlov berish. Magnit separatsiyasi, yuvish jarayoni va ishqalab yuvish jarayonlaridan keyin olingan kvarts konsentratini termik ishlov berish uchun mufel pechida 900 °C haroratda kuydirilib kvarts strukturasi yaxlitligini buzish uchun suvda birdaniga sovutildi. Sovutilgan kvarts konsentratini quritish shkafida 120 °C haroratda quritildi. Undan keyin qurigan kvarts qumi namunalari magnit separatsiyasidan o'tkazilgandan keyin quyidagi natijalarga erishildi (mas.%): SiO_2 - 98,8; Al_2O_3 -0,45; Fe_2O_3 -0,025; TiO_2 -0,001; CaO -0,05; MgO - izlari, Na_2O -0,12; K_2O -0,43. Olingan kvarts qumi konsentrati yuqori nur o'tkazish ko'rsatkichiga ega bo'lgan shisha mahsulotlar ishlab chiqarishga yaroqli hisoblanib, «OBC-025-1» va «OBC-025-1A» markaga to'g'ri keladi.

Tadqiqotlar natijasida kvarts qumini boyitishning yangi kombinatsiyalangan texnologik sxemasi ishlab chiqildi (6-rasm).



6-rasm. Kvars qumini boyitishning kombinatsiyalangan texnologik sxemasi

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan tabiiy kvars qumini boyitish usullari shisha erish haroratini taxminan 20–30°C ga yoki undan ham ko'proq pasaytirish imkonini beradi. Bu esa xomashyoni termik qayta ishlash bilan bog'liq boshlang'ich xarajatlarni qoplashi va ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, yuqorida keltirilgan boyitish usullaridan foydalanish orqali oddiy boyitish jarayoniga nisbatan qumning sifatini yuqoriroq markaga oshirishga yordam beradi. Oynaqum kvars qumini turli usullar bilan boyitish natijalari hamda ularning kvars konsentratni sifatiga ta'siri amaldagi GOST 22551-2019 bilan taqqoslanishi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Ishlab chiqilgan boyitish texnologiyasining kvars qumining kimyoviy tarkibi va sifatiga ta'sirini taqqoslash

Sinov namunalari	Oksid miqdori, mas. %			GOST 22551-2019 muvofiq qum markasi
	SiO ₂	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	
Dastlabki namuna	98,1	0,72	0,12	C-070-2
Birlamchi magnit ajratish	98,5	0,70	0,07	C-070-1
Yuvilgandan keyin	98,6	0,60	0,06	C-070-1
Ishqalab yuvilgandan keyin	98,6	0,50	0,05	BC-050-1, BC-050-2
Termik ishlov berilgandan keyin	98,8	0,45	0,025	OBC-025-1A, OBC-025-1


Kimyoviy-mineralogik va granulometrik tarkiblariga asosan shuni xulosa qilish mumkinki, tadqiq qilingan boyitilgan Oynaqum koni kvarts qumi sifatiga asosan shisha ishlab chiqarishning zamonaviy talablariga mos keladi. Oynaqum kvarts qumi koni dastlabki namunasining yuvish va ishqalab yuvish, hamda termik ishlov berilgandan keyingi (900°C) magnit separatsiyasi bilan taqqoslangan mikroskopik tahlil natijalari 7-rasmda keltirilgan.



**7-rasm. Oynaqum kvarts qumi namunalarining mikroskopik tasvirlari:
a- dastlabki, b-yuvilgandan keyingi, d-ishqalab yuvilgandan keyingi,
e-termik ishlov berilgandan keyingi**

Keltirilgan tasvirlardan ko‘rinib turibdiki, boyitilmagan kvarts qumi donalari yuzasini qoplagan sariqlik boyitishning barcha bosqichlaridan so‘ng yo‘qolgan.

Oynaqum kvarts qumi namunasining elektron-mikroskopik (SEM) solishtirma tahlil natijalari (8-rasm) shuni ko‘rsatadiki, dastlabki kvarts qumi namunasi (a) asosan yumaloq shakldagi zarrachalarga ega bo‘lib bu kvarts qumining tabiiy kelib chiqishiga hos shakl hisoblanadi. Kristallar yuzasi silliq va zich shishasimon zarralar, shuningdek kichik yoriqlar hamda mikroporalalar bilan ifodalangan. Biroq, 900 °C haroratda termik ishlov berilib, keyin suvda keskin sovutilgan namunada (b) sezilarli strukturaviy o‘zgarishlar yuzaga keldi. Ushbu o‘zgarishlar kvarts mineralining fazaviy o‘tishlari va tez harorat o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Kristallar yuzasida ko‘plab mikroyoriqlar, yemirilish, shaklning deformatsiyasi va yuzaning strukturaviy buzilishi kuzatiladi, bu esa yoriqlar orasiga yengil eruvchan shixta komponentlarining kirishiga imkon berib, shisha erish haroratining pasayishiga sabab bo‘ladi.



**8-rasm. Kvars konsentratini namunalarining elektron-mikroskopik tasvirlari:
a- dastlabki, b-termik ishlov berilgandan keyingi**

Shunday qilib, Oynaqum koni kvars qumini boyitish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, temir va titan oksidlari ko'rinishidagi rang beruvchi zararli aralashmalardan tozalashda dastlabki magnit separatsiyasi, yuvish, ishqalab yuvish va termik ishlov berish jarayoni bilan magnit separatsiyasi jarayonlarini qo'llash samara beradi. Ushbu texnologiyani ishlab chiqish natijasida, kvars qumi tarkibidagi temir oksidi miqdori 0.025 mas.%. gacha kamayadi va ushbu kombinatsiyalangan qumni boyitish tarmog'i ishlab chiqaruvchi korxonaga eng toza kvars konsentratini olish imkonini beradi, natijada sifatli shisha va shisha idishlarni ishlab chiqarish imkoniyatini beradi.

Dissertatsiyaning **“Shisha idishlar namunalarining tarkiblari va texnologik xossalari, hamda ularning tajriba-ishlab chiqarish sinovlari. Kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik va ishlab chiqarishda o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan natijalar tavsiyasi”** deb nomlangan to'rtinchi qismida kvars konsentratini va kerakli qo'shimchalar-premikslar asosida shisha idish namunalarini olish bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Yuqori shaffoflikka ega bo'lgan shisha namunalarining tarkiblari ishlab chiqilgan. “ASL OYNA” MChJ sharoitlarida ishlab chiqilgan shisha idishlarning tajriba namunalari tarkiblari natijalari keltirilgan. Ishlab chiqilgan texnologiyalardan foydalanishda keladigan iqtisodiy samaradorlik hisoblab chiqilgan va amaldagi standartlarning barcha talablariga to'g'ri keladigan shisha idishlar namunalari aniqlab berilgan.

3-jadvalda sintez qilinayotgan shisha namunalarini kimyoviy tarkibi amaldagi GOST 52022-2003 va O'z DSt 2439:2012 talablariga muvofiq shixta tarkibi 100 gr. shisha uchun hisoblangan. Shu bilan birga, shisha qaynash jarayonida ba'zi xomashyolarning uchuvchanligi va parchalanishlari hisobga olingan.

Shisha olish uchun quyidagi kimyoviy tarkibga ko'ra shixta tarkibi hisoblangan, mas. %: SiO₂ -72,5, Al₂O₃ -1,5, CaO -8,0, MgO -3,5, Na₂O -14,5. Bu maqsadga erishish uchun kvars konsentratini, dolomit, soda (KDD) va boshqa xomashyo komponentlari asosida dastlab shixta tarkibi hisoblab chiqildi.

3-jadval

Rangsiz shisha olish uchun shisha shixtasi tarkibi namunalari

Xomashyo materiallari	Shishalarning tajribaviy tarkiblari, mas. %						
	Namuna	KDD-1	KDD-2	KDD-3	KDD-4	KDD-5	KDD-6
Kvars qumi	55-65	-	-	-	-	-	-
KKOM	-	52	55	50	-	-	-
KKTM	-	-	-	-	52	53	55
Kalsinatsiyalan. soda	19-20	16,8	18	17,7	17,2	18	17,8
Dehqonobod dolomiti	16-17	11,7	12	11,5	11,7	11,3	11,5
Mikrokalsit (mel)	5-6	6,5	6,1	6,7	6,6	7,1	7,3
Dala shpati	-	12,8	10	13,7	12,3	11,3	9,7
Glinazyom	0,5	-	-	-	-	-	-
Premikslar	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5

Izoh: KKOM- Oynaqum kvars qumi konsentratini, KKTM- Tulakul tomirsimon kvars konsentratini.

Yuqorida ko‘rsatilgan tajriba namunalari asosida shisha mahsulotlari olishda shisha idish ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan "ASL OYNA" MChJ korxonasi tajriba-ishlab chiqarish sinovlari o‘tkazildi.


Tadqiq qilinayotgan dala shpati qo‘shimchali namunalarning erish haroratini aniqlashda, ularni ishlab chiqarish namunalari bilan solishtirganda pastroq erish haroratiga ega ekanligi ko‘rsatdi (4-jadval).

4-jadval

Tajriba namunalarning erish haroratlari

Suyuqlanish haroratlari, T°C	Shishalarning tajribaviy tarkiblari						
	Namuna	KDD-1	KDD-2	KDD-3	KDD-4	KDD-5	KDD-6
Erish boshlanishi	1420	1380	1405	1395	1400	1405	1415
Erish tugashi	1510	1450	1470	1460	1475	1465	1495
Harorat farqlari	90	70	65	65	75	60	80

Natijada, 9-rasmda aks ettirilgan amaldagi ishlab chiqarish namunasi (a) hamda tajribalar orqali olingan ichki, tashqi pufakchalarsiz va yoriqlarsiz shaffof shisha namunalari (b,d) olingan.



a

b

d

9-rasm. Shisha tajriba namunalarning fotosuratlarini

“ASL OYNA” MChJ sharoitida har bir tonna shisha olish uchun 2088400 sum qiymatdagi amaldagi ishlab chiqarish shixtasini tannarxi 1830900 sum bo‘lgan ishlab chiqilgan shixta tarkibiga almashtirish orqali 257500 sum yoki 13% iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.

XULOSA

1. Oynaqum kvars qumi, Tulakul tomirli kvars, Dehqonobod dolomit konlari, «Ingichka» uchastkasi dala shpatlarining kimyoviy-mineralogik va granulometrik tarkiblari, fizik-kimyoviy hususiyatlari, fizik-kimyoviy tadqiqot va shisha texnologiyasining klassik usullaridan foydalanib tadqiq etilgan.

2. Yuvish, ishqalab yuvish va termik ishlov berish bilan keyingi magnit separatsiyasidan o'tkazish jarayonlaridan kompleks foydalanish bilan kremnezyom xomashyosini boyitish texnologiyasi ishlab chiqilgan, uning natijasida kremniy oksidining (SiO_2) miqdori 99,0 mas.% bo'lgan kvars kontsentrati olingan.

3. Yuvish, ishqalab yuvish va termik ishlov berish bilan keyingi magnit separatsiyasidan o'tkazish jarayonlarini qo'llash xisobiga (Fe_2O_3 va TiO_2) ko'rinishidagi salbiy qo'shimchalardan tozalashning nisbatan yuqori samaradorligiga erishilganligi aniqlangan. Bu esa yuqori shaffoflikka ega bo'lgan shisha buyumlari uchun yaroqli bo'lib, Fe_2O_3 miqdori 0,025 mas.% gacha kamayganligi va kvars qumi sifatining «OBC-025-1» markagacha yaxshilash imkonini bergan.

4. Yuqori sifatli shisha materiallari ishlab chiqarish uchun mahalliy yuqori kremnezyomli xomashyo resurslari, jumladan Oynaqum kvars qumi, Tulakul tomirli kvars va «Ingichka» uchastkasi dala shpatlari asosida yuqori yorug'lik o'tkazuvchanligiga ega shisha buyumlarining omuxta tarkiblari va olishning maqbul texnologik rejimlari ishlab chiqilgan.

5. Shisha omuxtasi tarkibiga texnik glinazyom (2000°C dan yuqori) o'rniga dala shpatidan ($1150-1250^\circ\text{C}$) foydalanilganligi sababli, omuxtada kimyoviy jarayonlar nisbatan past haroratda borishi natijasida shisha qaynashi va shisha suyuqlanmasining gomogenlashuvi mos ravishda yaxshilanishi aniqlangan.

6. Nisbatan past haroratda ($1380-1450^\circ\text{C}$), GOST 5717.1-2014 va Oz DST 2439:2012 larning amaldagi talablariga mos bo'lgan, ichki, tashqi pufaklarsiz va yoriqsiz shaffof shisha namunalari olingan.

7. Bajarilgan tadqiqotlar asosida xo'jalik-maishiy maqsadlardagi shisha idish namunalari ishlab chiqilgan va korxonada sharoitida tajriba sinovidan o'tkazilgan. Natijada yangi retseptura asosidagi shisha materiallarning ishlab chiqilgan tarkibini joriy etishdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik «ASL OYNA» MChJ sharoitida shisha massasi bir tonnasiga 257 500 so'mni tashkil etishi ko'rsatilgan.

8. Olingan natijalar, kremnezyomli xomashyo resurslarini boyitish va turli maqsadlardagi shisha materiallar tarkiblari va ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha qo'llanma material sifatida foydalanish mumkinligi, hamda Respublika silikat materiallari sanoati, jumladan, qurilish, texnik va xo'jalik-maishiy maqsadlardagi shisha materiallari ishlab chiqarish uchun xomashyo bazasini kengaytirishga olib kelishi ko'rsatilgan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/05.05.2023.К/Т.35.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ИНСТИТУТЕ
ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

ИНСТИТУТ ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ

АНВАРОВ АКБАРЖОН БАХРОМ УГЛИ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ОБОГАЩЕНИЯ
ВЫСОКОКРЕМНЕЗЕМИСТОГО СЫРЬЯ И ПОЛУЧЕНИЕ
НА ЕГО ОСНОВЕ ПРОЗРАЧНОГО ТАРНОГО СТЕКЛА
С УЛУЧШЕННЫМИ СВОЙСТВАМИ**

**02.00.13 - Технология неорганических веществ и материалов на их основе.
02.00.15- Технология силикатных и тугоплавких неметаллических материалов.**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В2024.4.PhD/T5032 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Институте общей и неорганической химии АН РУз.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.iopx.uz и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Кадырова Зулайхо Раимовна
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Намазов Шафоат Саггарович
доктор технических наук, профессор, академик

Юнусов Миржалил Юсупович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Навоийский государственный горно-технологический университет

Защита диссертации состоится «10» июля 2025 году в «14⁰⁰» часов на заседании разового Научного совета DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02 при Институте общей и неорганической химии АН РУз. по адресу: 100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77-а. Тел.: (+99871) 262-56-60; e-mail: iopx@academy.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Института общей и неорганической химии (указан под № 75). (Адрес: 100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77-а. Тел.: (99871) 262-56-60).

Автореферат диссертации разослан «26» июня 2025 года
(реестр протокола рассылки № 75 от «26» июня 2025 года)



Н.Х. Усанбаев
председатель разового научного совета
по присуждению ученой степени, д.т.н., проф.

Ж.С. Шукуров
член разового научного совета
по присуждению ученой степени, д.т.н., проф.

Ш.С. Намазов
председатель разового научного семинара
при разовом научном совете по присуждению
ученой степени, д.т.н., проф. академик

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в связи с интенсивным увеличением потребности к востребованным стекольным материалам хозяйственно-бытового, строительного, технического назначения уделяется особое внимание разработке эффективных составов и инновационных технологий их производства. Так как, успешная деятельность отрасли по производству стекольных изделий в основном зависит от качества используемых перспективных высококремнеземистых сырьевых ресурсов. Следует отметить, что с истощением существующих запасов традиционных кремнеземистых сырьевых ресурсов, а также для получения высококачественных изделий и развития производства стекольной промышленности, проведение исследований по комплексному изучению особенностей кремнеземистых минеральных сырьевых пород, разработке и широкому освоению инновационных технологий обогащения отечественных некондиционных сырьевых ресурсов, поиску аналогов или замене основного кремнеземистого сырья на другие компоненты, которые снижают себестоимость готовой продукции, являются актуальными проблемами.

В настоящее время в мире проводятся научно-исследовательские работы по разработке составов и технологии получения высококачественных стекольных изделий и материалов на основе энерго- и ресурсосберегающих технологий. В этом плане уделяется особое внимание расширению сырьевой базы стекольной промышленности путем освоения нетрадиционных месторождений сырьевых ресурсов, разработке способов их обогащения, с минимальными материальными затратами, низкотемпературным процессам варки компонентов стекольных шихт, обоснованию влияния температуры на расплавообразование, установлению зависимости физико-технических свойств стекольных материалов от технологического режима их получения.

В Республике достигнуты определенные научные и практические результаты в этой области исследований и осуществляются широкомасштабные мероприятия по исследованию процессов расплавообразования и технологии получения стекольных материалов различного назначения, с использованием пониженной температурой варки стекольного расплава, определению физико-технических и специфических свойств полученных стекольных изделий, в частности широкой цветовой гамме стеклянных бутылок, банок, бесцветных, цветных, тонированных и т.д. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 гг. отмечено, что расширить сырьевую базу за счет вовлечения нетрадиционных нерудных сырьевых ресурсов, разработать и внедрить безотходную технологию в рамках «Зеленой экономики».¹ В этом плане, приобретает особое значение обогащение некачественного кремнеземистого сырья и получение стекольных изделий на основе низкотемпературной технологии.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии Развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

